

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI  
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSC.03/30.12.2019.FIL.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**ORIPOVA NURAFSHON OLIMJON QIZI**

**NAZAR ESHONQUL NASRIDA AYOLLAR OBRAZI TALQINI**

**10.00.02 – O‘zbek adabiyoti (XX asr o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy  
jarayon)**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in Philology  
Sciences**

**Оглавление автореферата диссертации философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Oripova Nurafshon Olimjon qizi**

Nazar Eshonkul nasrida ayollar obrazi talqini ..... 3

**Oripova Nurafshon Olimjon qizi**

The interpretation of the image of women in the prose of Nazar Eshonkul ..... 25

**Орипова Нурафшон Олимжон кизи**

Интерпретация образа женщины в прозе Назара Эшонкула ..... 49

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

List of published works

Список опубликованных работ ..... 55

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI  
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSC.03/30.12.2019.FIL.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**ORIPOVA NURAFSHON OLIMJON QIZI**

**NAZAR ESHONQUL NASRIDA AYOLLAR OBRAZI TALQINI**

**10.00.02 – O‘zbek adabiyoti (XX asr o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy  
jarayon)**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Fil3351 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Ulug‘ov Abdulla O‘zbekovich**  
filologiya fanlari nomzodi, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Yakubov Islomjon Axmedjonovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Burxonova Feruza Abdurazzoqovna**  
filologiya fanlari bo‘yicha flasafa doktori  
(PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**O‘zbek tili, adabiyot va folklori instituti**

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi DSc. 03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)); e-mail: [monitoring@navoiy-uni.uz](mailto:monitoring@navoiy-uni.uz)).

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi (2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**Sh.S.Sirojiddinov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, filol.f.d., akademik

**Q.U.Pardayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, filol.f.d., professor

**N.A.Jabborov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, filol.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyotshunosligida badiiy asar tahliliga doir muammolarni o'rganish va uni anglash zarurati gumanitar sohalarida ham jiddiy masalalarni kun tartibiga qo'yimoqda. Ayniqsa, ijtimoiy salmoqqa, adabiy-estetik ahamiyatga ega yangi ilmiy izlanishlar olib borish uchun imkoniyatlar kengayib bormoqda. Epik turning qissa va hikoya janriga xos adabiy kanonlar, ularda tasvirlanayotgan xotin-qizlar obrazi, ayollarning iztiroblari, ruhiy dunyosini tadqiq etish bilan bog'liq tadqiqotlar izchillik bilan davom etmoqda. Ayol ruhiyatini o'rganish insonning ma'naviy olami, dunyoqarashi, tafakkur tarziga xos qonuniyatlarni anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Adabiy jarayon doimo ijtimoiy hayot, adabiy muhit bilan chambarchas holda kechadi. Kishilarning ong-u tafakkuri, dunyoqarashidagi yangilanishlar ko'proq adabiyot va san'atda o'z aksini topadi. Adabiyotshunoslik fani ham o'z obyektiga yangi nigoh bilan qarash, ayol ruhiyati bilan bog'liq muammolarni chuqur anglashga intiladi.

Dunyo adabiyotshunosligidagi qissa janri va uning poetik tabiati bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarning nazariy umumlashmalari ushbu janr adabiy taraqqiyotning oldingi bosqichlarida yuzaga kelgan namunalarini ham qayta baholash zaruratini tug'dirdi. Zotan, qissa janri taraqqiyotini yangilangan adabiy-estetik kanonlar negizida tahlil va tadqiq etish adabiyotshunoslik ilmini yangi nazariy umumlashmalar hisobiga yanada boyitadi hamda bugungi taraqqiyot tamoyillarini oydinlashtirish va istiqbolini prognoz qilish imkoniyatini beradi. Nazar Eshonqul asarlarida ayolning ruhiyatini aks ettirishda jahon nasrining ilg'or ijodiy tendensiyalariga xos jihatlar yaqqol seziladi. Hozirgi o'zbek adabiy nasrida, xususan, Nazar Eshonqul hikoya, qissalarida ayolning ijtimoiy hayotda va oilada tutgan o'rni, uning his-tuyg'ulari, murakkab ruhiy olamini tasvirlashda falsafiy-psixologik, ramziy-majoziy obrazlilikka intilish ko'zga tashlanadi. Dissertatsiya ishida Nazar Eshonqul hikoya va qissalarida ayollar obrazining o'rni hamda ahamiyatini ko'rsatish muammo sifatida qo'yildi. Darhaqiqat, badiiy asarlardagi ayollar obrazini o'rganish muayyan davr ijtimoiy hayoti va adabiyoti manzarasi to'g'risida tasavvur uyg'otadi.

O'zbek adabiyotshunosligi, xususan, sho'ro davri adabiyotida ayollar ko'proq ishchi kuchi, "baxtli turmush" egasi sifatida tasvirlangani to'g'risida so'z yuritiladi. Hozirgi davr qissa va hikoyalarida esa ayollarning murakkab qismati hamda ziddiyatli xarakteri, turmush tashvishlari ichidagi holati diqqat markaziga qo'yiladi. Ikki davr adabiyotining ana shu kabi o'ziga xosliklarini Nazar Eshonqul hikoya va qissalari misolida tadqiq etish esa muhim ilmiy ahamiyatga ega. Nazar Eshonqul ijodining bir qismida ayollar asosiy qahramon sifatida gavdalantirilib, ularning qismati, ruhiyati, ma'naviyati ijtimoiy hayotda tutgan o'rni va mavqeyi bilan uyg'unlikda tasvirlanib, hayot chorrahalaridagi holatini ko'rsatishga alohida e'tibor qaratiladi. Adib ijodidagi o'ziga xos ayni jihatni o'rganish zamonaviy o'zbek nasridagi asosiy tamoyillarni ko'rsatish imkonini beradi. Bu esa tadqiqot mavzusining dolzarb ekanini tasdiqlaydigan muhim asos bo'la oladi. Istiqlool davri o'zbek adabiyotshunosligining xalqaro maydondagi o'rni va milliy madaniy merosini tadqiq etish, qadriyatlarni anglash zarurati bugungi globallashuv

jarayonida badiiy adabiyotning mohiyatiga yanada chuqur kirib borish, badiiy asarlarning jahon adabiyoti ravnaqidagi o‘rnini ko‘rsatish keyingi davr adabiyotiga kuchli ta‘sir o‘tkazgan ijodkorlar merosini o‘rganishni taqozo etmoqda. Bugungi madaniy-ma‘rifiy sohalardagi islohotlar jarayoni o‘zbek adabiyotshunosligi oldiga ham qator yangi vazifalar qo‘ymoqda. “Najot – ta’limda, najot – tarbiyada, najot bilimda. Chunki barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi”<sup>1</sup>. Yozuvchi Nazar Eshonqul hikoya va qissalaridagi ayollar obrazini o‘rganish, ularning kishilar dunyoqarashini boyitish, ma’naviyatini yuksaltirishdagi ahamiyatini ko‘rsatish mazkur tadqiqotning o‘ziga xos xususiyatlarini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4997-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850 “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-son “Ma’naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”, 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi Qarorlari, shuningdek, 3-avgustdagi O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma‘ruzasi hamda BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida so‘zlangan nutqlaridagi va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlarga bog‘liqligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Mavzuning o‘rganilganlik darajasi.** O‘zbek adabiyotida Nazar Eshonqul ayrim asarlarining tahlili I.Haqqulov, E.Azam, Q.Qahromonov, N.Jabborov, Y.Solijonov, D.Quronov, B.Karimov, A.Ulug‘ov, I.Yoqubov, Sh.Ahmedova, M.Qo‘chqorova, Faxriyor, D.Xoldorov, U.Rasulova, F.Burxonova, N.Cho‘liyeva kabi olimlarning maqolalarida bir qadar o‘z ifodasini topgan. Ishda Nazar Eshonqul hikoya va qissalarini tahlil qilish asosida zamonaviy o‘zbek nasrida ayol obrazi aks ettirilishini ko‘rsatish asosiy muammo sifatida belgilangan. Nazar Eshonqul nasrida ayollar obrazini gavdalantirish muammosi maxsus tadqiqot ishi doirasida o‘rganilmagan. Mazkur dissertatsiyada, yuqoridagi ishlardan farqli

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so‘zi. – Toshkent, 2022. 20-dekabr.

ravishda, mavzu ilk bor monografik tarzda o'rganilmoqda. Mavzuni yoritish maqsadida quyidagi nazariy manbalar<sup>2</sup> va tadqiqotlarga<sup>3</sup> murojaat etilgan.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy tadqiqot rejasiga muvofiq "Hozirgi adabiy jarayon masalalari" mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Nazar Eshonqulning nasriy asarlari misolida ijodkorning obraz yaratish mahorati, ayol ruhiyatini aks ettirishda yozuvchi badiiy uslubining namoyon bo'lishi, adibning hikoya va qissalarida hayot hodisalari ifodalanishini ochib berishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

Nazar Eshonqul hikoya va qissalarida muallif badiiy konsepsiyasini tashuvchi bosh qahramonga yuklatilgan g'oyaviy zalvorni aniqlash, xarakterlarning turli vaziyat-holatlarda o'zini qanday tutishi, u qabul qilgan qarorlarning atrofida va muhitni o'zgartirishga ta'siri qanday kechganiga e'tibor berilganligini dalillash;

Adib nasrida ayollar obrazini tasnif hamda tahlil qilish, muallifning obraz yaratishda personajlarning o'zgalar, shuningdek, ziddiyatli vaziyatlarda raqiblari

---

<sup>2</sup> Султон И. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2005; Каримов Н., Мамажанов С., Назаров Б. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. – Toshkent: Ўқитувчи, 1999; Норматов У. Умидбахш тамойиллар. – Toshkent: Маънавият, 2000; Йулдош Қ. Ёниқ сўз. – Toshkent: Янги аср авлоди, 2006; Қўчқорова М. Бадий сўз ва руҳият манзаралари (эссе, қисса, ҳикоя: тадқиқ ва талқин). – Toshkent: Муҳаррир, 2011; Солижонов Ю. Нутқ ва услуб. – Toshkent: Чўлпон, 2022; Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018; Каримов Б. Руҳият алифбоси. – Toshkent: Ғафур Ғулом, 2018; Холдоров Д. Ижод моҳияти – услуб хосияти. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017; Ёқубов И. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси. – Toshkent: Nurafshon business, 2022; Холдоров Д. Ҳозирги ўзбек қиссаларида бадий услуб муаммоси. – Toshkent: Firdavs-Shoh, 2021; Намрайев К. Adabiyotshunoslik asoslari (kompozitsiya, syujet, obraz). – Toshkent: Nurafshon business, 2022.

<sup>3</sup> Досмухамедов Х. Ҳозирги ўзбек ҳикоячилигида бадий тафаккурнинг янгиланиши (80-йилларнинг иккинчи ярми ва 90-йилларнинг аввалидаги ҳикоялар мисолида). Филол. фан. номз. ... дисс. – Toshkent, 1995; Сатторова Г. 90-йиллар ўзбек ҳикоячилигида миллий характер муаммоси (Ғ.Хотам, Ҳ.Дўстмухаммад, Н.Эшонкул ҳикоялари мисолида). Филол. фан. номз. ... дисс. – Toshkent, 2002; Рустамова М. Истиқлол даври ўзбек қиссаларининг тараққиёт тенденциялари. Филол. фан. номз. ... дисс. – Toshkent, 2005; Матякубов С. Ҳозирги ўзбек ҳикояларида инсон концепсияси ва шахс бадий талқини. Филол. фан. номз. ... дисс. – Toshkent, 2006; Холмуродов А. Ўзбек қиссачилиги: тараққиёт муаммолари. Филол. фан. д-ри ... дисс. – Toshkent, 2008; Камилова С. XX аср охири – XXI аср бошлари рус ва ўзбек адабиётида ҳикоя жанри поэтикаси ривожини. Филол. фан. д-ри ... дисс. – Toshkent, 2016; Холдоров Д. Ҳозирги ўзбек қиссаларида бадий услуб муаммоси (Ш.Бўтаев ва Н.Эшонкул қиссалари мисолида). Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Toshkent, 2017; Раджапова Ф. Истиқлол даври ўзбек қиссачилигида услуб ва поэтик тил. Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Toshkent, 2018; Бурхонова Ф. Муаллиф адабий-эстетик қарашлари ва ижодий параллелизм (Н.Эшонкул ва У.Ҳамдам ижоди мисолида). Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Toshkent, 2019; Чулиева Н. Ижодкор маҳорати ва жанр поэтикаси (Назар Эшонкул қиссалари мисолида). Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Қарши, 2020; Ўразбаева М. Ҳозирги ўзбек романчилигида аёл образи ва унинг қиёсий таҳлили. Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Toshkent, 2021; Эшматова Ў. Истиқлол даври ўзбек қиссачилигида аёл руҳиятининг бадий талқини. Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Toshkent, 2022; Расулова У. XX аср ўзбек қиссачилиги (поэтик изланишлар ва тараққиёт тамойиллари). Филол. фан. д-ри ... дисс. – Toshkent, 2020; Saidmurodova S. Nazar Eshonqul asarlarida badiiy psixologiya. Filol. fan. b. fals. dok. ... diss. avtoref. – Termiz, 2023; Jovliyev B. Badiiy asarda mifopoetik talqin va badiiy obraz (Yozuvchi Nazar Eshonqul asarlari misolida). Filol. fan. b. fals. dok. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2023; Shukurova S. Jon Steynbek va Nazar Eshonqul asarlarida shaxs erki va jamiyat munosabatlarining badiiy-falsafiy talqini. Filol. fan. b. fals. dok. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2023. Eshboyeva T. O'zbek folkloridagi arxetiplar va zamonaviy proza. Filol. fan. b. fals. dok. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2023. Tojiyev A. Hozirgi o'zbek hikoyachiligidagi uslubiy izlanishlar. Filol. fan. b. fals. dok. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2025.

bilan munosabatga kirishish holatini ilmiy asoslash, ayollar obrazida adibning ijodkor ruhiyati bilan uyg'unligini va badiiy voqelik sodir bo'lgan makon hamda zamondagi detal va ashyolar (interiyer)ning personaj shaxsiyatini ochib berishga xizmat qilganligini ochib berish;

ijodkorning obraz yaratishda realistik va norealistik tasvir imkoniyatlari kengayishi bilan ayol jinsining an'anadan uzilmagan stereotiplari yuzaga kelganini ilmiy asoslash;

Nazar Eshonqul hikoya va qissalaridagi kayvoni momolar obrazini o'rganish hamda xarakterlar tashqi ko'rinishi (yurish-turishi, imo-ishoralari, yuz ifodalari, jussasi, kiyim-kechagi) ijtimoiy mavqeyiga nechog'lik mutanosib ekanini, original obrazlar yaratganini aniqlash.

**Tadqiqot obyekti** sifatida Nazar Eshonqulning "Urush odamlari", "Momoqo'shiq" qissalari, "Shamolni tutib bo'lmaydi", "Bepoyon osmon", "Qultoy" hikoyalari tanlangan. Tadqiqot ishida adibning qissa va hikoyalarda bevosita ayollar obrazi o'rganilishi maqsad qilib qo'yilganligi uchun ayollar obrazi bosh qahramon darajasida olib chiqilgan asarlar tadqiqot obyekti qilib olingan. Adibning shu uch hikoya va ikki qissasida nafaqat bosh obrazdagi qahramon ayollar (Biydi momo, Anzirat, Muazzam, Bayna momo, Oyto'ldi, Arxizol), balki epizodik obrazdagi ayollar ham yorqin tasvirlangan. Dissertatsiyada Tursunoy guj-guj, Sora, Hanifa, Hojar, Kudurat kampir, Tiniq kampir, Muslim kabi obrazlarni tahlil etish orqali yozuvchining badiiy maqsadi yanada ayonlashgan deb aytish mumkin. Shu orqali yozuvchi o'z estetik idealini – insoniylik va qadriyatlar ustuvorligini ilgari suradi.

**Tadqiqot predmetini** Nazar Eshonqul hikoya va qissalarida ayollar obrazining gavalantirilishi, ramzlar talqini, obrazlar xatti-harakatlariga ta'sir etgan ichki va tashqi omillar tahlili hamda ular ruhiyatining yoritilishi masalalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya mavzusini yoritishda biografik, tarixiy-qiyosiy, psixologik, statistik, germenevtik, lingvopoetik va tahliliy usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Nazar Eshonqul hikoya va qissalaridagi ayollar obraziga oid itoatkorlik, dard-iztirobga ko'nuvchanlik, mutelik, kayvonilik kabi jihatlar tekshirilib, adibning ayol ruhiyatini tasvirlashda ichki monolog, portret, dialog, peyzaj, rang va boshqa detallarga alohida e'tibor qilinib, obrazlar xarakteriga xos bo'lgan xususiyatlar: vafodorlik, o'z-o'zini taftish va tergov etish, bir so'zlilik, sadoqat ochib berilgan;

adibning "Shamolni tutib bo'lmaydi", "Qultoy", "Bepoyon osmon" hikoyalari misolida ayollar obrazining tashqi qiyofasi: yurish-turishi, kiyinishi, xatti-harakat, imo-ishoralari orqali ongli va ongosti tuyg'ular dunyosi o'zining va roviyning hamda turli personajlarning nigohi, shuningdek, ichki monologlar orqali aniqlangan;

adabiy qahramonlar nutqidagi xususiyatlar aniqlanib, xususan, kinoyaviylik, olqish va qarg'ishlardagi oreal belgilardagi mahalliy kolorit ifodasi dalillangan va asarlardagi ayollar obrazining ular yashovchi hudud bilan sheva

leksikasi jihatidan mutanosibliği tekshirilgan va asarlarda folklor an'analarining yoritilishi misollar asosida isbotlangan;

ayol ruhiyatini teran ochib berish maqsadida yaratilgan onaxonlar, kayvoni momo obrazlari aks etgan realistik qissalardagi tasviriylik, kinoyaviy va satirik bayon usuli yozuvchi ijodi misolida ilmiy asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

istiqlol davri o'zbek nasridagi ayollar obrazining o'ziga xos xususiyatlari (personajning tashqi ko'rinishi, kiyim-kechagi, insoniy fazilatlari yoki nuqsonlari, qahramonlar nutqi va ijtimoiy mavqeyi) adib ijodi misolida ko'rsatilib, Nazar Eshonqul hikoya va qissalari o'zbek adabiyotidagi o'ziga xos hodisa ekani ilmiy jihatdan dalillangan;

Nazar Eshonqul hikoya va qissalarida personajlar shaxsiyati, xatti-harakat motivlari, ma'naviy-ruhiy dunyosini ochib berish va badiiy matn yetakchi g'oyasini o'quvchiga yaxshiroq tushuntirish uchun qo'llagan usullari orqali amaliy ahamiyat kasb etishi isbotlangan;

adib asarlaridagi ayol obrazi portreti, tasviri, ular nutqidagi sheva leksikasi, hududga xos bo'lgan tushunchalar ilmiy asoslanib, xarakteri, imo-ishoralari, yuz ifodalari, jussasi, kiyim-kechagi ijtimoiy mavqeyiga nechog'lik mutanosib ekani ilmiy asoslangan;

ayol ruhiyatini teran ochib berish maqsadida yaratilgan onaxonlar, kayvoni momo obrazlari aks etgan realistik qissalardagi tasviriylik, kinoyaviy va satirik bayon usuli yozuvchi ijodi misolida ilmiy asoslangan;

ayolning jinoyatga qo'l urishi va qotilga aylanishi uchun sabab bo'lgan omillar qasoskor ayol ruhiyatini ishonchli, jonli, hayotiy ochib berishda qo'llanilgan badiiy nutq, psixologik shartlilik kabi ramzlar muhim ahamiyat kasb etishi dalillangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** muammoning aniq qo'yilgani, qo'llanilgan ilmiy usullar va nazariy ma'lumotlarni berishda aniq ilmiy manbalarga tayanilgani, tahlilga tortilgan materiallarning ilmiy metodlar vositasida asoslangani, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani, adabiyotshunoslikning zamonaviy ilmiy konsepsiyalari asosida tahlil va talqin qilingani bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati Nazar Eshonqul ijodini o'rganish, uning obraz yaratish mahoratiga oid nazariy tadqiqot natijalaridan mustaqillik davri o'zbek adabiyoti tarixini o'rganishda, adabiyot nazariyasi fanining nasr, janr, uslub, badiiy til, syujet, xronotopga doir ilmiy-nazariy qarashlarni boyitishi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati zamonaviy o'zbek nasri nazariy asoslari hamda nasrda ayollar obrazining badiiy vazifasiga doir ilmiy tadqiqotlar uchun material bera olishi, oliy o'quv yurtlarining "Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)" ta'lim yo'nalishida "Adabiyot nazariyasi", "Yangi o'zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon", "Hozirgi adabiy jarayon", "O'zbek adabiy tanqidi tarixi" kabi fanlardan ma'ruzalar o'qishda, amaliy mashg'ulotlar o'tkazishda, darslik, o'quv qo'llanmalar yaratishda manba bo'lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi.** Nazar Eshonqul nasrida ayollar obrazi talqini masalasini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotning ilmiy natijalari asosida:

Nazar Eshonqul hikoya va qissalaridagi ayollar obraziga oid itoatkorlik, dard-iztirobga ko‘nuvchanlik, mutelik, kayvonilik kabi jihatlar tekshirilib, adibning ayol ruhiyatini tasvirlashda ichki monolog, portret, dialog, peyzaj, rang va boshqa detallarga alohida e‘tibor qilinib, obrazlar xarakteriga xos bo‘lgan xususiyatlar: vafodorlik, o‘z-o‘zini taftish va tergov etish, bir so‘zlilik, sadoqat ochib berilgani haqidagi nazariy xulosalaridan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023-yillarda bajarilgan IL-402104474-raqamli “bolalaradabiyoti.uz” elektron platforma va uning mobil ilovasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 5-apreldagi N01/04-1256-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada ijodkorning ayollar obrazini yaratishdagi mahorati, ularni gavdalantirishda foydalangan badiiy vositalar qahramonlar ruhiyati bilan mutanosib ekanligi, asarlarida folklor stilizatsiyasi yoritilishi masalasiga oid xulosalar elektron platforma materiallarini boyitishga xizmat qilgan;

adibning “Shamolni tutib bo‘lmaydi”, “Qultoy”, “Bepoyon osmon” hikoyalari misolida ayollar obrazining tashqi qiyofasi: yurish-turishi, kiyinishi, xatti-harakat, imo-ishoralari orqali ongli va ongosti tuyg‘ular dunyosi o‘zining va roviyning hamda turli personajlarning nigohi, shuningdek, ichki monologlar orqali aniqlanganiga oid ilmiy-nazariy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2023-2024-yillarda bajarilgan AL-662205561 “Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 9-apreldagi N01/04-1318-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada adib ijodida mumtoz adabiyot vakillari asarlaridan foydalanish, iqtibos va fikrlar olish asosida uning ijodi zamonaviy o‘zbek adabiyotidagi o‘ziga xos adabiy hodisa ekanligini asoslaydigan ilmiy xulosalar loyiha materiallarini boyitgan;

adabiy qahramonlar nutqidagi xususiyatlar aniqlanib, xususan, kinoyaviylik, olqish va qarg‘ishlardagi oral belgilardagi mahalliy kolorit ifodasi dalillangan va asarlardagi ayollar obrazining ular yashovchi hudud bilan sheva leksikasi jihatidan mutanosibliki tekshirilgan va asarlarda folklor an‘analarining yoritilishi misollar asosida isbotlanganligi haqidagi ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023-yillarda bajarilgan PF-201912258 “O‘zbek adabiyotining ko‘p tili (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 9-apreldagi N01/04-1317-son ma‘lumotnomasi). Natijada adib asarlaridagi ayollar obrazi tabiati, prototip masalasi, yozuvchining portret yaratish mahorati, personajlar nutqidagi individuallik o‘zbek ayolini gavdalantirishdagi o‘ziga xosliklarini ko‘rsatishga

oid ilmiy materiallardan elektron platforma materialini tayyorlashda foydalanilgan;

ayol ruhiyatini teran ochib berish maqsadida yaratilgan onaxonlar, kayvoni momo obrazlari aks etgan realistik qissalardagi tasviriylik, kinoyaviy va satirik bayon usuli yozuvchi ijodi misolida ilmiy asoslanganiga oid ilmiy xulosalardan “O‘zbekiston” teleradiokanalida Nazar Eshonqul hayoti va ijodiga bag‘ishlangan ko‘rsatuvlarda “Ta’lim va taraqqiyot”, “Adabiy jarayon” radioeshittirish ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston 24” ijodiy birlashmasi davlat muassasasining 2025-yil 7-apreldagi N05-09-436-son ma’lumotnomasi). Natijada Nazar Eshonqulning ayollar obrazini yoritishdagi izlanishlari, ularning xarakterini tasvirlashdagi o‘ziga xosliklarga baho berilgan. Tadqiqotda bayon qilingan mulohazalar, unda taqdim qilingan ma’lumotlar teleko‘rsatuv va radio eshittirishlarning sifati, mazmuni va samaradorligini oshirgan hamda eshittirish va ko‘rsatuvlar materiallari boyitilgan.

**Tadqiqot natijalarning aprobatsiyasi.** Dissertatsiya natijalari 6 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarning e’lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 11 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, ularning 4 tasi respublika, 1 ta xorijdagi ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, yetti faslni ichiga olgan uch asosiy bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Tadqiqotning umumiy hajmi 140 sahifani tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan bo‘lib, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, fan va texnologiyalar rivojining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ishonchligi, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Dissertatsiyaning dastlabki bobi “**Adabiyotshunoslikda Nazar Eshonqul ijodining o‘rganilishi**” deb nomlangan bo‘lib, ushbu bob ikki fasldan iborat. Birinchi fasl “Nazar Eshonqul asarlari tadqiqi” deb nomlangan. Unda Nazar Eshonqulning adabiyot maydoniga kirib kelishi, uning ijodiga taniqli adabiyotshunoslar tomonidan berilgan baholar, e’tiroflar hamda adib asarlari obyekt sifatida o‘rganilgan dissertatsion tadqiqotlar haqida ma’lumot beriladi.

Adibning ijodi haqida adabiyotshunos Umarali Normatov o‘zining xotiralaridan birida “Mustaqillik yillarida shakllangan, ayni shu davrdagi yangilanishlar ichida, boshida turgan yangi avlod ijodkorlarning aksariyati ayni shu o‘zlari boshlagan tamoyillarning himoyachisi, nazariy asoschisi sifatida

maydonga chiqdilar. Nasrda Xurshid Do'stmuhammad, Nazar Eshonqul, Isajon Sultonlarning chiqishlari hozircha maxsus o'rganilgani, yetarli bahosini olgani yo'q"<sup>4</sup> deb qayd etgan.

Nazar Eshonqul dastlab adabiy maydonga "Urush odamlari" qissasi bilan kirib kelgan. Bu asar e'lon qilingan vaqtda adib yigirma uch yoshda edi. Lekin uning adabiyotshunoslar e'tiborini tortgan asari "Maymun yetaklagan odam" hikoyasi bo'lgan.

Uning 1989-yilda yozilgan "Maymun yetaklagan odam" hikoyasi ham zamonaviy o'zbek nasrida o'ziga xos o'rni va maqomiga ega. Bu asar haqida gap ketganda, adabiyotshunos olimlar tomonidan o'sha davrdagi ijtimoiy tuzumning va shu tuzumga umrini tikkan insonlarning mehnati bema'ni ekanini ochib beruvchi asarlar qatorida sanab o'tiladi. Dastlabki asarlari bilanoq munaqqidlar nazariga tushgan adibning bu hikoyasiga Umarali Normatov "Ramziy-simvolistik timsollar tashiydigan ma'noning teran va ko'lamdorligi, qahramon hayot yo'lining chuqur tahlili – bu asarni jahon novellistikasining eng yaxshi namunalari qatoriga qo'yishga izn bergan edi"<sup>5</sup> deya fikr bildirgan edi. Nazar Eshonqul hikoyalari tadqiq etilganda, "Keyingi o'n yil mobaynidagi realistik hikoyachiligimizni o'zgacha bir bosqichga ko'tardi"<sup>6</sup> kabi e'tiroflar aytilgan.

Adabiyotshunos olimlar orasida adib ijodiga turlicha yondashuvlar va uning asarlariga G'arb adabiyotining ta'siri masalasida quyidagi fikrlar bayon qilingan: "Nazar Eshonqulovning "Muolaja" hikoyasi Kafkaning "Jazo koloniyasi" asarini eslatadi. Shunga asoslanib, bizdagi absurd tamoyilini faqat G'arb ta'siriga bog'lash, uni taqlidchilikdan iborat, deb qarash to'g'ri emas. Milliy adabiyotdagi har bir yangi hodisaning sababini tashqi omillardan emas, avvalo, ona zaminning o'zidan, real voqelikdan, zamona ehtiyojlaridan izlamoq darkor"<sup>7</sup>. Adibning o'zi ham o'ta an'anaviy yo'sinda yozishini ta'kidlagan.

Yozuvchining qissalari ham adabiyotshunos olimlar nigohidan chetda qolmagan. Adabiyotshunos Qozoqboy Yo'ldoshev adibning "Tun panjaralari" qissasiga tanqidiy ruhda yondashib, uni tahlil etgan. Nazar Eshonqul qissasining tasviri tiniq emas, loyqaligiga sabab uning zalvori, ko'lami, miqyosidan ekanini ta'kidlagan. "Mazkur qissada Nazar go'yo olamga birovning ko'zi bilan qarab, uni birovning tili bilan tasvirlayotganga, asarni azbaroyi tajriba uchun yozayotganga o'xshab ko'rinadi. O'xshatishlarning sun'iyiligi, hayratlarning qahramon tabiati va ruhiyatidan yiroqligi kishining g'ashiga tegadi"<sup>8</sup> deya aytib o'tgan. Adabiyotshunos tahlilini davom ettirar ekan, syujetning mavjud emasligi, tasvir tabiiy emasligi va aqlga muvofiq kelmasligini ta'kidlagan. "Shaxs sifatida o'zini, davrini, zamonini mushohada chig'irig'idan o'tkazishga moyillik – intellektual qahramonlar obrazini yaratish N.Eshonqul hikoyalarining o'ziga

<sup>4</sup> Normatov U. Ijodkorning qaroratli s'zi. – Toshkent: Turon zamin zi'e, 2005. – B. 116.

<sup>5</sup> Normatov U. Umiddahsh tamoyillar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000. – B. 6.

<sup>6</sup> Dосмухамедов X. Hozirgi 'zbek hikoyachiligida badiiy tafakkurning yangilaniши (80-yillarнинг иккинчи ярми ва 90-yillarнинг аввалидаги hikoyalar misolida). Филол. фан. номз. ... дисс. – Toshkent, 1995. – B. 11.

<sup>7</sup> Каримов Н., Мамажанов С., Назаров Б. XX аср 'zbek адабиети тарихи. – Toshkent: 'kituvchi, 1999. – B. 65.

<sup>8</sup> Йўлдош Қ, Ёник сўз. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. – B. 196.

xosligini tashkil etadi”<sup>9</sup>. Mushohada yuritadigan qahramonlar, ularning ichki o‘ylari asarlarning mag‘zini tashkil etadi.

Adibning qissalariga xoh an’anaviy bo‘lsin, xoh modern adabiyotshunoslar turlicha yondashib, ular haqida o‘z fikrlarini bildirgan. Jumladan, adabiyotshunos Bahodir Karimov “Ijodini “Urush odamlari” nomli an’anaviy qissa yozish bilan boshlagan iste’dodli adibimiz Nazar Eshonqul noan’anaviy yo‘lda “Qora kitob”, “Tun panjaralari” degan fikr-mulohazaga undaydigan qissalar yozdi. Badiiy adabiyot borasida boshqacharoq tafakkur yuritayotgan adibning o‘ziga xos ovozi yaqqol sezildi”<sup>10</sup> deya e’tirof etgan. Talqin va tahlillar hikoyadan qissaga, qissadan esa romanga tadrijiy tarzda ulangan.

Nazar Eshonqulning asarlari orasida uning “Go‘ro‘g‘li yoxud hayot suvi” romani modernistik ruhda ekanligi bilan alohida ajralib turadi. Adabiyotshunos Islom Yoqubov “Mustaqillik davri o‘zbek romanlari poetikasi” romanning umumiy mazmuni mustamlakachilikka qarshi kurash bilan bog‘liqligi, asar qahramonining ayanchli taqdiri, ya’ni o‘limi ramziy ma’noda, tanazzulga uchragan epik makon (mustamlaka yurt)ni ifodalaydi degan qarashni ilgari surgan. Adabiyotshunos “Go‘ro‘g‘li – hazmi og‘ir, modern roman”<sup>11</sup> deb xulosa chiqargan. Adibning asarlari qaysi janrda bo‘lishidan qat’i nazar adabiyotshunoslar nazaridan chetda qolmagan. Nazar Eshonqul ijodi, hikoya va qissalari X.Do‘smuhammedov, G.Sattorova, M.Rustamova, S.Matyoqubov, A.Xolmurodov, S.Kamilova, D.Xoldorov, F.Radjabova, F.Burxonova, A.Toshpo‘latov, N.Cho‘liyeva, Y.Eshmatova, U.Rasulova, Y.Babaqulov, T.Eshboyeva, S.Saidmurodova, B.Jovliyev, S.Shukurova, A.Tojiyevlarning dissertatsion tadqiqotlarida<sup>12</sup> o‘rganilgan. Birinchi faslda bu tadqiqotlarning

<sup>9</sup> Досмухамедов Х. Ҳозирги ўзбек ҳикоячилигида бадий тафаккурнинг янгиланиши (80-йилларнинг иккинчи ярми ва 90-йилларнинг аввалидаги ҳикоялар мисолида). Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1995. – Б. 33.

<sup>10</sup> Каримов Б. Рухият алифбоси. – Тошкент: Фафур Фулом, 2018. – Б. 7.

<sup>11</sup> Ёқубов И. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси. – Тошкент, Nurafshon business, 2021. – Б. 246.

<sup>12</sup> Qarang: Досмухамедов Х. Ҳозирги ўзбек ҳикоячилигида бадий тафаккурнинг янгиланиши (80-йилларнинг иккинчи ярми ва 90-йилларнинг аввалидаги ҳикоялар мисолида). Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1995; Сатторова Г. 90-йиллар ўзбек ҳикоячилигида миллий характер муаммоси (Ғ.Хотам, Ҳ.Дўстмуҳаммад, Н.Эшонқул ҳикоялари мисолида). Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2002; Рустамова М. Истиқлол даври ўзбек кссаларининг тараққиёт тенденциялари. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2005; Матякубов С. Ҳозирги ўзбек ҳикояларида инсон концепцияси ва шахс бадий талқини. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2006; Холмуродов А. Ўзбек кссачилиги: тараққиёт муаммолари. Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 2008; Камилова С. XX аср охири – XXI аср бошлари рус ва ўзбек адабиётида ҳикоя жанри поэтикаси ривож. Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 2016; Холдоров Д. Ҳозирги ўзбек кссаларида бадий услуб муаммоси (Ш.Бўтаев ва Н.Эшонқул кссалари мисолида). Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Тошкент, 2017; Раджапова Ф. Истиқлол даври ўзбек кссачилигида услуб ва поэтик тил. Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2018; Бурхонова Ф. Муаллиф адабий-эстетик қарашлари ва ижодий параллелизм (Н.Эшонқул ва У.Ҳамдам ижоди мисолида). Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Тошкент, 2019; Чулиева Н. Ижодкор маҳорати ва жанр поэтикаси (Назар Эшонқул кссалари мисолида). Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Қарши, 2020; Эшматова Й. Истиқлол даври ўзбек кссачилигида аёл руҳиятининг бадий талқини. Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Тошкент, 2022; Расулова У. XX аср ўзбек кссачилиги (поэтик изланишлар ва тараққиёт тамойиллари). Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 2020; Saidmurodova S. Nazar Eshonqul asarlarida badiiy psixologiya. Filol. fan. b. fals. dok. ... diss. avtoref. – Termiz, 2023; Jovliyev B. Badiiy asarda mifopoetik talqin va badiiy obraz (Yozuvchi Nazar Eshonqul asarlari misolida). Filol. fan. b. fals. dok. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2023; Shukurova S. Jon Steynbek va Nazar Eshonqul asarlarida shaxs erki va jamiyat munosabatlarining badiiy-falsafiy talqini. Filol. fan. b. fals. dok. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2023. Eshboyeva T. O‘zbek folkloridagi arxetiplar va zamonaviy proza.

ayrimlariga to‘xtalib o‘tilgan. Mazkur tadqiqotlarda yozuvchining uslubi, hikoyalari mavzu ko‘lami, qissalari uslubi, xarakter muammosi va boshqa muammolar o‘rganilgan.

Tadqiqotning “Yozuvchi hikoya va qissalarida xotin-qizlar obrazi tasnifi” deb nomlangan ikkinchi faslida adib nasrida ayollar obrazining o‘rni va ularning adabiyotshunoslar hamda tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilishi haqida mulohaza yuritilgan. Zamonaviy o‘zbek nasrida ayol obrazi alohida badiiy-estetik va ijtimoiy-ma’naviy yuklamalarga ega murakkab toifa sifatida namoyon bo‘ladi. Ayolning jamiyatdagi va oiladagi o‘rni, uning ichki kechinmalari, ijtimoiy muhit va maishiy muammolar bag‘ridagi kurashi bugungi adabiyotda dolzarblik kasb etmoqda. Nazar Eshonqul ijodidagi xotin-qizlar obrazi ham ana shunday murakkab va ko‘p qirrali tasvirlar ichida alohida o‘rin egallaydi.

Adibning hikoya va qissalaridagi ayollar obrazi, bir tomondan, milliy ruh va an’analar bilan chambarchas bog‘liq holda yuritilsa, boshqa tomondan, zamonaviy tafakkur, ichki ozodlikka intilish, shaxsiy drama va ijtimoiy beqarorlik kabi illatlar bag‘rida shakllanadi. Ayollar nainki maishiy hayotda, balki ma’naviy jarayonlarda ham faol, fidokor, ayni paytda, ezgulik hamda muruvvat ramzi sifatida namoyon bo‘ladi.

Nazar Eshonqulning “Urush odamlari”, “Momoqo‘shiq”, “Qultoy”, “Shamolni tutib bo‘lmaydi”, “Bepoyon osmon” kabi asarlaridagi xotin-qizlar – bu nafaqat bir shaxs yoki personajlar majmuasi, balki xalq taqdiri, millatning ma’naviy siymosi, or-nomus uchun azaliy kurash va sabr-toqat timsolidir. Ularning obrazi orqali adib oila, ona, Vatan, xotira, mehr va juftlik kabi abadiy mavzularni qayta tiklaydi. Mazkur faslda Nazar Eshonqul asarlaridagi xotin-qizlar obrazi tabiati, personajlar psixologiyasi, ijtimoiy-tarbiyaviy vazifasi hamda ularning umumiy badiiy funksiyasi nuqtayi nazaridan ilmiy tahlil etilgan. Zamonaviy o‘zbek adabiyotshunosligida ayollar obrazi tadqiq etilgan ilk tadqiqot Maqsud Shayxzodaning “Navoiy ijodida ayol obrazi” maqolasi deb aytish mumkin. Maqsud Shayxzodaning maqolasida hazrat Navoiy asarlaridagi ayollar, jumladan, Mehinbonu, Shirin, Layli, Dilorom obrazi tadqiq etilgan. Ularning jismoniy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy va jangovarlik kabi xususiyatlari haqida mulohaza yuritilgan. Nazar Eshonqul hikoya va qissalarida ayollar obrazi ko‘plab adabiyotshunoslar tomonidan turli jihatlardan tadqiq etilgan. 1996-yilda e‘lon qilingan “Shamolni tutib bo‘lmaydi” hikoyasi qahramoni Bayna momo “Asrga tatigulik kun” romanidagi Nayman ona, “Chol va dengiz”dagi qariya obraziga qiyoslangan. Adabiyotshunos Umarali Normatov “Bu hikoya qahramoni – undagi go‘zal va kuchli shaxs obrazi ham ayol, ko‘pni ko‘rgan onaxon. Milliy adabiyotimiz hozirgi rivojiga xos bu qutlug‘ tamoyil tabarruk ayol zoti, onaxonlar madhidan boshlanayotganligida qandaydir sir-sehr, qonuniyat bo‘lsa, ajab emas. Axir, onalar umidbaxsh ezgulikning doyasidirlar”<sup>13</sup> deya fikr bildirgan.

Adabiyotshunos Dilmurod Xoldorov Nazar Eshonqul qissalari uslubi haqida tadqiqot olib borgan. Adabiyotshunos adibning “Urush odamlari”

---

Filol. fan. b. fals. dok. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2023; Tojiyev A. Hozirgi o‘zbek hikoyachiligidagi uslubiy izlanishlar. Filol. fan. b. fals. dok. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2025.

<sup>13</sup> Normatov U. Умидбахш тамойиллар. – Тошкент: Маънавият, 2000. – Б. 73.

qissasidagi ayollar obraziga e'tibor berib, asarda fojeaviy vaziyatni ochib berishda eng katta vazifa Anziratga yuklanganini, urush natijasida yuz bergan fojealarning eng dahshatlisi Anziratning hayotida yuz berganligini ta'kidlagan. Yozuvchi Anziratning ichki kechinmalarini shafqatsiz tarzda ochib tashlaganini, bunda adib neytral yo'ldan borganini, Anziratning fojeasi biryoqlama tasvirlanmaganini aytib o'tgan. "Anzirat gohida qilayotgan gunohlarini bolalarining hayotini saqlab qolish uchun qilyapman, deb o'ziga taskin ham beradi. Biroq bu tazarrular, oqlashlarga o'zi ham chin dildan ishonavermaydi. Shuning uchun yozuvchi uning ichida kechayotgan, shuuridagi ikkinchi "men"ini ochishga harakat qiladi"<sup>14</sup>. Dilmurod Xoldorov adibning "Momoqo'shiq" qissasini ham tahlil etib, muallif asar qahramonlarini ikki toifaga ajratganini ta'kidlagan. Birinchisi, uning so'zi bilan aytganda, yer odamlari, el odamlaridir. Ular milliy qadriyatlarni his qila oladigan, buning uchun, avvalo, milliylik mezonidan batamom to'yingan odamlar deb atagan. Ikkinchi toifani esa o'z tuprog'iga o'zi begona, ammo o'z galar madaniyatini chuqur o'rganib olgan, milliy madaniyatdan uzoqlashgan insonlar deb atagan. Qissada asosiy qahramonlardan biri – Muazzam haqida: "Asardagi Muazzam – milliy qadriyatlarni o'zida to'la jamuljam etgan obraz. U o'ta sodda, mehnatkash, oila sha'ni va bolalarini o'z manfaatlaridan yuqori qo'yadi. Shuning barobarida juda ishonuvchan. Soddaligidan Shamsi Salohning badnafslilik ortidan aytilgan havoyi gaplariga, cho'pchaklariga ishona boshlaydi. Lekin tezda Muazzamdagi muazzam tuyg'u, insoniy sadoqat va sodiqlik hislari o'tkinchi xayollarni yengib chiqadi"<sup>15</sup> deyilgan. Darhaqiqat, Nazar Eshonqul asarlarida milliylikni saqlash, millatimizga xos bo'lgan g'urur hamda insoniylik tamoyillari qalamga olingan va bunda ayollar obrazining psixologik negizi muhim.

Olim tahlil so'ngida quyidagi fikrlar bilan o'z mulohazalari yakunlaydi: "Momoqo'shiq"da ko'tarilgan muammolar bir qarashda jo'ndek tuyulsa-da, aslida xalqning xalq bo'lishi, ajdodlardan davom etib kelayotgan qadriyatlarning yo'qolishi, inqirozga yuz burishi mana shunday oddiylikdan boshlanishini uqtiruvchi ogohlik belgisidir. "Momoqo'shiq"da fazilatlar ko'p. Eng muhimi yozuvchining estetik ideali yuksalib borish yo'lidagi, o'ziga xos falsafiy uslubining mukammallashish jarayonidagi bir bosqich hamdir"<sup>16</sup>. Darhaqiqat, mazkur asar yozuvchining uslubi mukammallashib borganidan dalolatdir.

Feruza Burxonovaning "Muallifning estetik qarashlari va ijodiy parallellik" mavzusidagi ilmiy izlanishida Nazar Eshonqul asarlaridagi momolar, ya'ni kampir obraziga to'xtalgan. Tadqiqotda mazkur obrazlar bevosita hayotiy prototip asosida yuzaga kelgani, ular orqali muallifning ijtimoiy, ma'naviy va falsafiy qarashlari ifodalangani ilmiy asosda tahlil etiladi. Muallif, xususan, "Urush odamlari"dagi Biydi momo, "Shamolni tutib bo'lmaydi"dagi Bayna momo kabi obrazlarning milliy g'urur, or-nomus, sabr-toqat va fidoyilik kabi fazilatlar bilan boyitilganligini ta'kidlaydi. Ular milliy ruh va qadriyatlar timsoli sifatida e'tirof etiladi. Izlanuvchi qissalarning yaratilish tarixini, yozuvchilar ijodida uchraydigan ayollar obrazining real hayotiy asoslarini adibning tug'ilib

<sup>14</sup> Холдорев Д. Ижод моҳияти – услуб ҳосияти. – Тошкент: Турон замин зиё, 2017. – Б. 43.

<sup>15</sup> O'sha asar. – B. 53.

<sup>16</sup> O'sha asar. – B. 55.

o‘sgan yurti, oilaviy va badiiy muhiti bilan birgalikda o‘rganib xulosalar chiqargan. Bu yerda keltirilgan qishloq Nazar Eshonqul tug‘ilib-o‘sgan, bolaligining ilk davrlari o‘tgan qishloqning nomi. “Momo obrazi esa adibning buvisi Pirmqul qizi Masil momoning prototipidir. Masil momo ham xuddi hikoyalarida tasvirlanganidek, yigirma yoshida eridan ayrilib, ikkita farzandi bilan beva qoladi va boshqa turmush qurmay hayotning butun mashaqqatlariga yolg‘iz o‘zi dosh beradi. Yozuvchi bolaligida o‘zi ko‘rgan-bilgan hayotiy xotiralar, diliga cho‘kib qolgan armonlar keyinchalik qayta uyg‘onib o‘z asarlari mohiyatiga singib ketgan”<sup>17</sup>. Adib asarlaridagi bu kabi kayvoni momolar obrazining hayotiy va jonliligini ta’minlash maqsadida uning xatti-harakatlari hamda gapirish manerasini, tashqi, ichki ruhiy dunyosini jonli tasvirlagan.

Adib asarlaridagi ayollar obrazini bir necha jihatlardan tasniflash mumkin. Biz ayollar obrazini yoshi jihatidan besh guruhga bo‘lib tasnifladik. Masalan: qizaloqlar (farzand yoki go‘dak ma’nosida), qizlar (turmushga chiqmagan, bo‘y yetib qolgan), kelinchaklar (turmushga chiqqan va farzandli bo‘lgunga qadar), juvon (turmushga chiqqan ayol, rafiqa), momolar obrazi.

---

<sup>17</sup> O‘sha manba. – B. 18.

**Adib asarlaridagi ayollar obrazining yosh jihatidan tasnifi**

№	Tasniflanish	Ta'rif	Obraz namunasi (asarlar misolida)
1	Qizaloqlar	Farzand yoki go'dak; hali voyaga yetmagan kichik yoshli qizlar	Hojar (Normatning qizi)
2	Qizlar	Turmushga chiqmagan, bo'y yetgan, balog'at yoshidagi qizlar	Talaba qizlar (Bayna momoning uyiga kelgan)
3	Kelinchaklar	Turmushga chiqqan, ammo hali farzand ko'rmagan yosh ayollar	Muslim, Sora, Hanifa, Oyto'ldi.
4	Juvonlar	Turmushga chiqqan, odatda, farzandli bo'lgan	Anzirat, Biydi momoning katta kelini, Muazzam.
5	Momolar (keksalar)	Keksaygan, tajribali, odatda, nabirali, hurmatli ayollar obrazi	Bayna momo, Biydi momo, Kudurat kampir, Bo'ston momo, Norbi kampir.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “Adib qissalarida ayollar obrazining aks ettirilishi” deb nomlangan bo‘lib, birinchi faslda “Urush odamlari” qissasida ayollar obrazi ruhiy olamining yoritilishi” masalasi tadqiq qilinadi. Aksar adabiy-badiiy asarlar markazida urush, muhabbat va o‘lim masalasi turadi. Bu xusudagi asarlarda esa ayollar obrazi markaziy o‘rin tutadi. Ayol timsolisiz san’atning biron bir yo‘nalishini tasavvur qilib bo‘lmaydi. Badiiy adabiyot, haykaltaroshlik, miniatyura, rassomchilik, kino, teatr va raqs shular jumlasidandir. Ayollar obrazi yillar davomida barcha xalqlar adabiyotida o‘ziga xos ko‘rinish bergan.

Nazar Eshonqulning dastlabki asari 1989-yilda “Urush odamlari” nomi bilan chop etilgan<sup>18</sup>. Qissa nomining o‘ziyoq urush va uning ortidagi hayot, frontda jang qilgan erkaklar va front ortida kurashgan ayollarning ayanchli qismatlari tasvirlanganidan dalolat beradi. Faslda ushbu qissada yuzga yaqin personajlar ishtirok etgani, ulardan qirq nafari ayol ekanligi aniqlangan. Qissada qahramonlarning nutqi orqali ham milliy kolorit sezilgan o‘rinlar tahlil etilgan. Ularda hududga xos bo‘lgan qarg‘ish, olqishlarni uchratish mumkin. Ayol zoti har qancha aqlli, erkaklardan-da o‘tar ishbilarmon bo‘lmasin, ruhiyatida ayol bo‘lib yashashi, barcha xotin-qizlar kabi mehrga tashna, suyilishni istovchi, pok muhabbatga talpinuvchi ayol ekanligiga urg‘u beriladi. Bu faslda xotin-qizlar ruhiyatining mehrga tashna ekanligi Anzirat va Biydi momoning ruhiyati hamda hislari misolida tahlil etilgan. Adib asarlarida o‘zbek ayolining dard-iztirobi, ruhiyatiga xos ma’sumalik, ko‘nuvchanlik, mutelik ortida bir qator hayotiy muammolar turishini talqin etar ekan, ularning tashqi qiyofasini ham nazardan chetda qoldirmaydi. Ularning yurish-turishi, qilayotgan ishlari, gapirgan gaplaridan tortib, qiliqlarigacha qahramon xarakteriga mos tushgan, deyish mumkin. Nazar Eshonqul asarlarida jamiyatdagi ayollar fojiasi o‘zga nigoh orqali kuzatilishini, qahramonlarning ruhiyatini, ayollik olamini o‘z tuyg‘ulari orqali ifodalanishini ko‘rish mumkin. Mazkur faslda qahramonlarning ruhiyati roviy nutqi, monolog, dialog, peyzaj, portret, rang va boshqa detallar orqali tahlil etilgan. Aksariyat o‘zbek momolarida kuzatiladigan kayvonilik xususiyati haqida mulohaza yuritilgan. Har bir xonadon borki, unda ayol bor, lekin kayvoni

<sup>18</sup> Эшонкул Н. Уруш одамлари. – Тошкент: Янги адабиёт, 1989. – Б. 35 - 48.

qishloqda, mahallada bitta bo'ladi. Hamma ayollar ham kayvoni sanalmaydi. Kayvonilik faqat ko'pni ko'rganlikda, ko'p narsani bilganlikda emas, balki ayolga, insonga xos talaygina xususiyatlarga ega bo'lish hamdir. Bunday go'zal fazilatlar ayollarda o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, shunchaki shakllanib qolmaydi. Ya'niki ajdodlar qonidagi xoh ijobiy, xoh salbiy xislat, albatta, keyingi avlodlarga o'tadi va o'z kuchini ko'rsatadi. Mohiyatan tug'ma kayvonilik sifati, onadan kayvoni bo'lib tug'ilish, avlod-ajdodlaridagi kayvonilik xususiyatlarini o'zida namoyon etish bilan ham belgilanadi. Bu qissada Biydi momoning onasi kayvoni bo'lganmi yoki yo'qmi bu haqda ma'lumot berilmaydi. Qissada unga berilgan ta'riflar, uning o'zini tutishi, nutqi, qadriyatlari, hattoki qarg'ishlarida ham obrazini to'ldiruvchi xususiyatlar mavjudligi aniqlandi. Aslida kayvoni sifati o'z urug'i yoki vatandoshlarining azaliy urf-odatlarini yaxshi anglagan, kezi kelganda so'zini ham o'tkazib, o'ziga ergashtiradigan gapga chechan yoshi katta ayollarga nisbatan qo'llaniladi. Ko'plab tadqiqotlarda ayol obrazi, eng avvalo, naslni davom ettiruvchi xilqat va bashariyatning yaratuvchisi sifatida talqin etilgan. Bundan tashqari, ayol dunyo xalqlari adabiyotida go'zallik, donishmandlik, aql, muhabbat timsoli sifatida ham qaralgan. Nazar Eshonqulning nasriy asarlarida esa ayollar obrazi or-nomus timsoli sifatida talqin etilgan. Adibning ko'p asarlarida or-nomus uchun kurashgan ayollar obrazini uchratish mumkin. Adib ularning portretlarini yaratishda folklor stilizatsiyasidan ilhomlangan, realistik tasvirlardan foydalangan, ularning nutqida kinoyaning o'rni ham borligi aniqlangan. Inson ruhiyatining chuqur tahlili, uning ong osti, yashirin sir-sinoatlarini yanada yaxshiroq tushunish va tasvirlash doim adabiyotshunoslikning dolzarb muammolaridan hisoblangan. Shu bois, badiiy asarda inson ruhiyatining chuqur va batafsil tahlili adabiyotning, badiiy asarning qiymatini belgilab kelmoqda. Ruhiyat tasviri muammosi jahon hamda o'zbek adabiyotshunosligida dolzarb tadqiqot muammolaridan biridir. Qissada Anziratning ruhiyati muammosi tasvirlariga qayta-qayta duch kelinadi, uning ruhiyatida bo'lib o'tgan baxtsiz hodisalarga oid chuqur iztirob, dard-alam chizgilari bor. Nazar Eshonqul ayollar obrazi ruhiyatidagi nozik qirralarni topishda ayol va jamiyat, er va xotin munosabatlari talqinidan, ayol va muhabbat masalalari tahlilidan foydalanadi. Adib ijodidagi befarzand ayol prototipi haqida ham alohida to'xtalish lozim. Qissada faqatgina bosh qahramon bo'lgan ayollar obrazi emas, balki epizodik qahramon bo'lgan ayollar obrazi ham muhim ahamiyatga ega. Masalan: Tursunoy guj-guj, Sora, Hanifa, Hojar, Kudurat kampir, Tiniq kampir, Muslim kabi obrazlar va ularning asardagi ishtiroki orqali adib jamiyatda ayollar bilan bog'liq bo'lgan muammolarga nazar solib o'tgan. Nazar Eshonqul Anzirat ruhiyatini ochishda nutq tiplaridan, xususan, muallifning bilvosita bayoni va qahramon ichki monologidan unumli foydalangan. Binobarin, monolog ichki tasviriy vosita sifatida ayol qahramonlar ruhiy dunyosini ishonarli ochishga xizmat qilgan. Anziratning xayollaridagi monologlarini monolog-muhokama, monolog-mulohaza, monolog-suhbat, monolog-xayol kabi turlarga ajratish mumkin. Bir necha o'rinlarda Anziratning ichidagi tuyg'ulari, tug'yonlari monologlar bilan o'quvchiga yetkazilgan.

Ushbu bobning ikkinchi faslida “Momoqo‘shiq” qissasida ayol-oila-jamiyat muammosi tadqiq etilgan. Ayol tabiatan nozik, nafis qilib yaratilgan. Uning shaxs erkinligi tuyg‘usini ifodalashda, xalqqa o‘zligini tanitishda adabiyotning roli va o‘rni beqiyosdir. So‘z san’atining betakror salohiyati ham shundaki, u ayni shu davrdagi odamlar ongi-shuurini, hayot nafasi va jamiyat ehtiyojlarini tasvirlanayotgan mazmunga singdirib yuboradi. Shunisi muhimki, ayol obrazlari har doim tasvir obyektiga ezgulik, go‘zallik, adolat va hokazo bashariy qadriyatlar asosida munosabat bildiradi. Aynan ana shu mohiyati bilan san’at asari umumbashariy mazmun kasb etadi. Badiiy asarning boqiy qadriyat maqomiga ega bo‘lishi, e‘zoz-ehtirom ko‘rishining boisi ham shunda. Ayol qalbining sinoatlari haqida so‘z aytmagan mutafakkir yo‘q. Zaif jussasi bilan tog‘larni ko‘tarishga qodir, bardoshi minglab tadqiqotlarga mavzu bo‘lgan. Biroq hali-hamon ayol botini, ruhiyati sirligicha qolmoqda. Bu asrorga to‘la mo‘jizaviy olamni tadqiq qilmoqqa bel bog‘lagan minglab adiblar, mutafakkirlar, faylasuflar uning ayrim jihatlarinigina ochib bera olgan, xolos.

Inson o‘z hayoti ma‘nosini anglagan kezdan yonidagilarni ham, ularning qalbini ham chuqur his eta boshlaydi. Yaqinlarini ko‘proq qadrlaydi. Chunki inson o‘zini anglamaguncha, o‘zgalarni anglay olmaydi. O‘zini tanimaguncha, yaratgan egasini tanimaydi. Qissa bosh qahramoni Muazzam vaqtida o‘zligini anglagani uchun oila deb atalmish muqaddas qadriyatga sodiq va loyiq qola olgan. Muazzam – o‘z hayotidan mamnun, baxtli va umr yo‘ldoshini sevadigan, uni hurmat qiladigan, oilasi uchun har ishga tayyor sodda qishloq ayoli. Balandparvoz va hashamdor so‘zlarga o‘ch bo‘lgan yozuvchi Shamsi Saloh tilidan aytilganda esa, “oyog‘igacha kesakning hidi urib ketgan qo‘shiq ilohasi”. “Momoqo‘shiq” qissasida Muazzam obrazi, aslida, milliy qadriyatlarni saqlab, davom ettirgan, ma‘naviy go‘zallik timsoli. Yozuvchi adabiy-estetik qarashlarining asosiy yo‘nalishlaridan birini tashkil etuvchi ichki madaniyat asar mohiyatiga singib ketgan. Asarda kitobxon asl madaniyatni “hasharchilar”da emas, go‘zallik, insoniylik, vafodorlikni beg‘ubor qalb sohibasi qishloqlik Muazzam obrazi misolida ko‘radi. Asar shunday insoniy ulug‘vorlikni, yuksak ma‘naviy barkamollikni ulug‘laydi. Qissada asosiy qahramon Muazzam va boshqa ayollar obrazi peyzaj, monolog, dialog, portret, ovoz kabi jihatlardan tahlil etilgan. Asarda ovozga nisbatan ingichka, shirali, nozli, ishvor, hirlingagan, yig‘lamsiragan, kulinqiragan, hadiksiragan, cho‘chinqiragan kabi sifatlar qo‘llangan. Yozuvchining qissa, hikoyalaridagi barcha qahramonlarni bir xususiyat – ulardagi javob izlash istagi o‘zaro yaqinlashtirib turadi. O‘zining muvaffaqiyatlari va muvaffaqiyatsizliklari to‘g‘risida o‘ylab, kechmishini tahlil qilish, o‘z-o‘ziga savol berib, javob izlash esa kishining ajoyib fazilatlarini sirasiga kiradi. Chunki inson javob izlash orqali o‘zini anglashga intiladi. Bu esa har bir kishining umri davomida erishishi mumkin bo‘lgan eng katta yutug‘i sanaladi.

Qissaning nomlanishi esa alohida mushohadani talab etadi. Ya‘ni bu qissada Momoqo‘shiq ismli biror qahramon yo‘q, lekin asosiy majoz qo‘shiq orqali berilgan. Qissada tilga olingan ayollar obrazidan biri Shamsi Salohning doimo yalangoyoq yuradigan momosi. Muazzamning qo‘shig‘ida momolarning nafasi, bobolarning shukuhi, ulug‘vor miskinlik, tovushlar, emranib-emranib

kuylashlar bor edi. Uning hayot borasidagi, o‘zbek ayollari borasidagi fikrlari yaratgan obrazlariga ta’sirchan tarzda singib, ularni hayot bilan bog‘laydi.

Nazar Eshonqul qaysi ayol obrazini tasvirlamasin, eng avvalo, uning ruhiyatiga nazar tashlaydi. Tashqi ko‘rinishni tasvirlash birlamchi emasdek tuyuladi. Adib mahoratining yuqoriligi shundaki, har bir obraz ruhiyati uning tashqi ko‘rinishiga, albatta, mos tushadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi esa “Yozuvchi hikoyalarda ayollar obrazi tavsifi” deb nomlanib, birinchi faslida “Shamolni tutib bo‘lmaydi” hikoyasida ona obrazi portreti va ichki olami yoritilishi” mavzusida fikr-mulohazalar bildirildi. “Shamolni tutib bo‘lmaydi” Nazar Eshonqulning ayol xarakteri ochib berilgan dastlabki hikoyasidir. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasida 1996-yil iyul (30-soni)da e’lon qilingan “Shamolni tutib bo‘lmaydi” hikoyasi esa o‘zbek hikoyachiligida muhim yangilik bo‘ldi. Bu faslda Bayna momoning iztiroblari, uni, eng avvalo, farzandidan judo bo‘lgan ona timsolida ko‘rish mumkin. Bayna momoning farzandi va turmush o‘rtog‘ining qotilidan yillar o‘tib qasos olishiga, qotilga aylanishiga sabab bo‘lgan jihatlar tahlil etilgan. Bayna momoning portretida, uning xarakteri, qishloqdoshlarini mensimasligi ortida uning ayollik his-tuyg‘ulari, og‘riqlari borligi aniqlangan. Asardagi yigirma bir personaj ichidan oltitasi ayol obrazi ekani aniqlangan.

Yozuvchi mazkur asar qahramoni Bayna momoning uzoq davom etgan fojiviy, motamsaro, ayni paytda, mardona hayot yo‘lini o‘ziga xos yo‘sin, ohangda hikoya qiladi. Unda momo qismati bilan bog‘liq ibratli voqealar, chunonchi u bilan qishloq ahli, olomon orasidagi ziddiyat bir-ikki detallar, chizgilar, ixcham lavhalar orqali eslatiladi. Adabiyotshunos Qozoqboy Yo‘ldoshev mazkur hikoyaning badiiy xususiyatlari haqida to‘xtalib shunday yozadi: “Shamolni tutib bo‘lmaydi” hikoyasidagi Bayna momo milliy adabiyotimizda mutlaqo tasvir etilmagan obraz. Hikoya chinakam insonga, butun shaxsga bitilgan madhiyadir. Nomusli odamni, g‘ururli insonni, chinakam shaxsni yengib bo‘lmaydi. Uni qiynash, chalish, yiqitish, boringki, o‘ldirish mumkin, lekin mag‘lub qilish mumkin emas. Shaxsligi shakllanmagan yoxud sindirilgan kimsada g‘urur bo‘lmaydi”<sup>19</sup>. “Shamolni tutib bo‘lmaydi” hikoyasida ana shunday ayol obrazi, ya’ni Bayna momo ruhiyatidagi ikki qutb – tiriklik bilan o‘lim oralig‘idagi umr manzarasini chizish, kayfiyat – kechinmalari ranglarini ko‘rsatish hikoyada ustuvor yo‘nalish kasb etadi. Yozuvchi qalamiga mansub hikoyalarda ayol timsoli ba’zan dardli, ma’yus, g‘amgin, ba’zan esa jo‘shqin, beqaror, qat’iyatli tasvirlangan bo‘lsa-da, baribir ayol nozik xilqat ekanligi, u doim mehr va muhabbatga burkangan olamdagina sokin yashay olishi adib tomonidan mohirona tasvirlangan. Adibning har bir nasrida ayolning ulug‘lanishi orqali o‘zbek xalqining onaga bo‘lgan yuksak e’tirofini ko‘rish mumkin.

Uchinchi bobning ikkinchi fasli “Bepoyon osmon” hikoyasida xotin-qizlar obrazining tutgan o‘rni” deb nomlangan. Nazar Eshonqulning hikoyalarda aksariyat ayollar obrazi o‘xshash bo‘lsada, o‘rni kelganida ular bir-biridan tubdan

---

<sup>19</sup> Йўлдошев К. Йирик шахслар тасвири йўлида // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 2024. – № 3 (март). – Б. 45-50.

farq qiladi. Adibning “Bepoyon osmon” hamda “Shamolni tutib bo‘lmaydi” hikoyalaridagi Bayna momo va Oyto‘ldi yozuvchining o‘zi ta’kidlaganidek, aynan o‘zbek ayollarining tipik vakilasi ekanligi ayonlashadi.

“Yozuvchining adabiy-estetik qarashlari bilan tanishar ekanmiz, eng avvalo, ijodkor kim, uning o‘zligi qanday namoyon bo‘ladi, yaratuvchanlik salohiyati nimalarda ko‘rinadi, shaxs darajasiga ko‘tarilishi yoki shaxssizlik, yozuvchi “men”i va “mensiz”lik, badiiy ijod va ijodkorlik, dunyoqarash, intuitsiya va boshqalarni badiiy ijodga aloqador tarzda tahlil qilish tashkil etadi”<sup>20</sup>. Nazar Eshonqul hikoyalarining o‘zaro – ruhan yaqinligi ma’naviy-axloqiy masalalar ustuvorligi bilan belgilanib, insonni badiiy tasvirlashdagi individual tafakkur tabiatining ijodiy yo‘sini bilan xarakterlanadi. Ularda insonni badiiy tushunish hamda tushuntirishda ikki yo‘nalish ko‘proq ko‘zga tashlanadi. Ayollar har qanday zamonda ham jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan deya ayta olmaymiz. Ayrim arab qabilalarida johiliyat davrida agar oilada qiz farzand dunyoga kelsa, tiriklayin ko‘mib yuborilganligi haqida ham ma’lumotlar bor. Lekin Sharq madaniyatida ayollarga qadim qadimdan hurmat va e’tibor ko‘rsatilgan. Islom dinida ham ayollarning xavfsizligi ularning oila boshliqlariga, ya’ni erkaklarga yuklatilgan. Jamiyatdagi ayollar huquqlari o‘zbek mentaliteti niqobi ortida toptalishiga misol bo‘ladigan badiiy asarlar talaygina. Shulardan biri Nazar Eshonqulning “Bepoyon osmon” hikoyasidir. Mazkur faslda hikoya qahramonlari, undagi ayollar obrazi statistikasi shakllantirilgan. Undagi uch ayol obrazi tahlil etilgan.

1. Oyto‘ldi – bu hikoyada markaziy qahramon. U fidoyilik, sabr, muhabbat va o‘zini qurbon qilish timsoli sifatida gavdalangan. Oyto‘ldi “tug‘mas” bo‘lsada farzand ne’matidan mosuvo bo‘lgan erkak (uning turmush o‘rtog‘i nazarda tutilyapti) va hikoya roviysi bo‘lgan bolalikdagi qahramonni mehr bilan parvarish etadi. U umri davomida xo‘rlilik, haqorat va e’tiborsizlik ichida yashaydi, lekin hech qachon e’tiroz qilish tugul, bir og‘iz ham nolimaydi. Hikoyada uning o‘z farzandi bo‘lmasada, qishloq bolalariga mehri ta’sirli tasvirlangan. Oyto‘ldi o‘zini bepushtlikda ayblab, turmush o‘rtog‘ining erkaklik sha’niga putur yetmasligi uchun tashxis hujjatlarini yashiradi. Ustiga kundosh olinishini bilsada, bu haqda og‘iz ochmaydi. Umri bo‘yi o‘zini aybdor holatda ko‘rsatadi.

2. Bibi Oyna obrazi hikoyada qat’iyatli, shafqatsiz va murossasiz ayol sifatida tasvirlanadi. Bu ayol uchun sharaf va urug‘-aymog‘ining obro‘si insoniy qadriyatlardan ham ustun turadi. Faqatgina hikoya yakuniga kelib bu qahramon insoniy zaiflik va nadomat hislarini o‘zida namoyon qila boshlaydi. Oyto‘ldini ilk bora “yangam” deb mehribonlik va hurmat bilan atagan. U bexosdan o‘z ichki armonini, qariyb butun umr o‘z dardini kimnidir malomat qilish bilan o‘zidan daf etganini tushunadi. Aslida Bibi Oyna ham ma’naviy ziddiyatlar va ko‘r-ko‘rona an’analar qurboni bo‘lgan ayol. Shu ayol obrazi orqali hikoyada ijtimoiy bosim va o‘ziga xos adolatsizlik ko‘rsatilgan. Bu qahramonni o‘zini oqlash ishtiyoqidan tug‘ilgan shafqatsizlik obrazi deyish ham mumkin.

---

<sup>20</sup> Бурхонова Ф. Муаллиф адабий-эстетик қарашлари ва ижодий параллелизм (Назар Эшонқул ва Улугбек Хамдам ижоди мисолида). Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – Б. 48.

3. Ona obrazi – Oyto‘ldining ovsini, asrandi o‘g‘ilning haqiqiy onasi. Hikoyada Bibi Oynaga qiyoslaganda xarakter jihatidan nisbatan yumshoqroq, ammo ijtimoiy taqozolar va an‘anaviy me‘yorlarga bo‘ysungan ayol sifatida ko‘rsatilgan. U ham Oyto‘ldini tan olmaydi, lekin ochiqchasiga malomat qila olmaydi. Faqat oilaviy urf-odatlar va ammaning ta‘sirida Oyto‘ldini befarzandlikda aybdor sifatida qabul qiladi. O‘z mehrini oilasi va farzandlariga beradi. Bu obraz orqali shaxsiy mehr va ijtimoiy me‘yorlar o‘rtasidagi ziddiyat ochib beriladi. U ochiqcha dushmanlik qilmasa-da, ko‘r-ko‘rona an‘analarni davom ettiradi. Bu obraz urf-odat va an‘analar ta‘sirida shakllangan, faol bo‘lmagan ijtimoiy obraz. Muallif bu ayollar orqali jamiyatdagi adolatsizlik, mehrsizlik va insoniy qadrni bilmaslik muammolarini hayotiy misollar orqali ta‘sirchan tarzda ko‘rsatadi.

Uchinchi bobning uchinchi fasli “Qultoy” hikoyasida mazluma ayol timsolining yoritilishi deya nomlangan. Yozuvchining “Qultoy” hikoyasida insonning butun umr azoblangan va shunga duchor mavjudot sifatidagi manzarasi chiziladi. Hikoyada yana bir bechora, mushtipar ayol obraziga duch kelinadi. Hikoyada yigirma ikkita personaj mavjud bo‘lsa, shundan beshtasi ayollar obrazidir. Adibning bu hikoyasida zamonaviy o‘zbek adabiyotidagi insoniylik tushunchasi kabi tub ijtimoiy-axloqiy masalalar teran va dramatik tarzda yoritilgan. Inson taqdiriga befarqlik fojiali oqibatlarga olib kelishi, uning oqibatlari esa ayanchli bo‘lishi ko‘rsatib berilgan. Jamiyatda ayollarga bo‘lgan munosabat, ularga nisbatan mehrsizlik, xo‘rlilik, azob, fidoyilik kabi holatlar aks etgan. Asar markazidagi obraz bu – Arzixol obrazi. Nazar Eshonqul asarlari qahramonlari ismlari ham bir olam ma‘no tashiydi. Umri davomida hech holidan, atrofda gilardan, oilasidan, taqdiridan arz qilmagan ayolning ismi Arzixol. Nazar Eshonqulning nasriy asarlarida bu holat uchrab turadi. Arzixol – jismonan mayib bo‘lgan, ko‘ngli ham orzularidek toptalgan obraz. Muallif voqealarga shunchaki so‘zlab berish orqali yondashmaydi.

1. Arzixol – hikoyaning markazida turadigan obraz. U jismonan mayib, jamiyat va oilasi tomonidan xo‘rlangan ayol obrazi. Hayoti davomida hech kimdan hurmat ham, mehr ham ko‘rmaydi (hikoyada unga bir oz achinish holatlari ham uchraydi). Arzixolning hayoti sabr va fidoyilik namunasi sifatida tasvirlangan. Arzixol o‘zining majruhligini ham unutib, butun umrini Uljon va uning oilasi uchun xizmat qilishga bag‘ishlaydi. U Uljonning haqiqiy onasi bo‘lsa-da, bu haqiqatni umrining oxirigacha sir saqlaydi (xuddi Oyto‘ldi turmush o‘rtog‘ining aybini yashirganidek). O‘z farzandini o‘z qoni va jonidan bo‘lishiga qaramay, begonadek tarbiyalaydi, o‘zini cho‘ri, qul darajasiga tushirib yashaydi. Bu hikoyaga tanlangan epigrafda ham “Otam Qultoy, xush qol endi” satrida shunga ishora bor. Uljon o‘z onasini naqadar azoblaganini u o‘lgachgina anglab yetadi. Ungacha esa unga xuddi quldek, cho‘ridek ayovsiz va jirkanch munosabatda bo‘ladi. Arzixolning Uljonga nisbatan sevgisi shartsiz edi. Farzandi qanday bo‘lsa ham ayolga farqi yo‘q. Ayol bolasini boricha qabul qiladi, sevadi, ardoqlaydi. Agar Arzixol emas, Uljon jismonan mayib bo‘lgan taqdirda ham, onasining unga sevgisi o‘zgarmagan bo‘lar edi. Arzixolning sevgisi jimjit va beparvo muhitda ham so‘nmaydi, u kaltak yeydi, haqoratlanadi, lekin hech

qachon norozilik bildirmaydi. Har bir xo‘rligni, har bir azobni o‘zining gunohi uchun berilgan jazo sifatida qabul qiladi. Bu orqali Arzixol – mehr va fidoyilik timsoli, ayolning o‘zgarmas sabri va matonatini ifodalaydi.

2. Rohat – hikoyadagi ikkinchi asosiy ayol obrazi. Rohat Uljonning o‘gay onasi. U kasallikdan ezilgan, o‘zining zaifligini va qismatining alamini boshqa bir mayib hamda ojiza jigaridan chiqarishga harakat qilgan obraz. Rohat Arzixolni yomon ko‘rardi, unga doim g‘azab va nafrat bilan qarardi, undan oriyat qilar edi, qarg‘ardi. Kasallik va azob uni mehribonlikdan mosuvo qilib, qattiq alamzada ayolga aylantirgan. Rohat obrazi orqali muallif inson dardining qanday qilib nafrat va adovatga aylanishini, mehrsiz hayot qanday qilib ruhiy zaiflikni kuchaytirishini ko‘rsatadi. Hikoyada u Rajab cho‘ponning ayoli, Arzixolning opasi sifatida namoyon bo‘ladi. Otasining qistovi bilan Uljonni asrab oladi. U yuqorida ta‘kidlanganidek, bor alamini Arzixoldan oladi. O‘zini bechora va qurbon sifatida ko‘rsatsada, aslida mehrsiz va hissiz ayol sifatida gavdalanadi. Rohat yuragini g‘azab va nafrat egallagan ayol timsoli. Uning kasalligi va zaifligi orqali insoniy zaiflik hamda ma‘naviy tanazzul ko‘rsatiladi.

3. Uljonning ayoli (ismi hikoyada berilmagan). U jamiyatdagi yangi avlodning vakili sifatida tasvirlangan. U dastlab Arzixolga nisbatan yaxshi muomalada bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan oilaviy va atrof-muhit ta‘sirida o‘zi ham mehrsiz hamda befarq ayolga aylanadi. U Arzixoldan foydalanadi. Unga sadoqat va andisha tushunchalari yot. Unga ishonib, uni yupatish maqsadida hayotining eng shirin xotirasini gapirib bergan Arzixolni, farzandlarining otasi bo‘lgan Uljonning eng nozik joyini boshqalarga aytishdan oriyat qilmaydi. Arzixolni oddiy xizmatkor sifatida ko‘radi, keyinchalik unga achinish hissidan ham uzoqlashadi. Uning Arzixolga nisbatan piching va tahqirli gaplari, g‘azab va befarqligi yangi avlod orasida ham mehrsizlik ildiz otayotganini ko‘rsatdi. U Arzixolning eng nozik sirini piching bilan fosh etadi, Arzixolni xo‘rlamoqchi bo‘ladi. Bu obraz orqali jamiyatdagi mehrsizlik va befarqlik qanday holatda avloddan avlodga o‘tishi ko‘rsatilgan. Bu hikoyadagi barcha ayollar tragik qahramonlar sifatida berilgan. Ular hayotning adolatsizligi va odamlarning mehrsizliklari qurboni bo‘lgan.

Hikoyadagi barcha ayollar obrazi aslida ijtimoiy muhitning jabrdiydalari. Hikoyadagi ayollar obrazi inson ruhiyatining nozik qatlamlariga boradi. Yozuvchi o‘z qahramonlari orqali hayotning fojiali haqiqatlarini mehr va muhabbatning inson hayotidagi beqiyos o‘rni hamda uni yo‘qotish oqibatlarini ko‘rsatadi. Bu hikoya nafaqat ijtimoiy, balki chuqur ma‘naviy, axloqiy saboq ham beradi: mehrsiz jamiyatda eng ayanchli fojialar sodir bo‘ladi va eng mo‘tabar tuyg‘ular so‘ndiriladi. Bu hikoyada Arzixol – yuzaga chiqmagan ona mehrining fojiali ifodasidir. Arzixol obrazida mayiblik – nafaqat jismoniy nuqson, balki uning butun hayoti “buzilgan” taqdir bilan ifodalovchi ramziy belgiga aylanadi. Arzixol barchaga birdek o‘z mehrini ko‘rsatgan, lekin hech qachon tan olinmagan, mehrga loyiq ko‘rilmagan ayoldir.

## XULOSA

“Nazar Eshonqul nasrida ayollar obrazi talqini” mavzusidagi dissertatsiya tadqiqotining natijalari quyidagilardan iborat.

1. Nazar Eshonqul o‘zbek adabiyotiga o‘zining realistik uslubdagi “Urush odamlari” qissasi bilan kirib keldi. Keyinchalik yangi ifoda usullariga diqqat qaratdi. U modernizm va realizm unsurlarini birlashtirib, badiiy ifoda usullarini yangilaydi. Nazar Eshonqul realistik tasvir usulini romantika, sentimentallik, simvolik talqin yo‘sini bilan boyitgan. Asarlarida ichki monolog “men”ning xayoliy kechinmalari asosida ish olib bordi.

2. Adabiyotshunoslikda Nazar Eshonqul asarlari ko‘plab dissertatsion tadqiqotlarda o‘rganilgan. Adib asarlaridagi intellektual qahramon, syujetsizlik, konflikt, ramziy-majoziy timsol, bayon yo‘sini, adabiy ta’sir, poetik tasvirning notabiiyligi, taqlidchilik, G‘arb adabiyotidan ijodiy ta’sirlanish, yozuvchi ijodi ichki tadriji kabi muammolar ko‘plab tadqiqotchilar, olimlar, adabiyotshunoslar tomonidan ilmiy tahlil etilgan.

3. Nazar Eshonqul ijodi zamonaviy o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos falsafiy-psixologik yondashuv bilan ajralib turadi. Yozuvchining nasriy asarlarida, ayniqsa, “Go‘r o‘g‘li yoxud hayot suvi ” romani, hikoya va qissalarida shaxs erkinligi, e’tiqod va vijdon masalalari teran badiiy tahlil qilinadi. Nazar Eshonqul asarlarining o‘ziga xosligi ham shundaki, milliy falsafa, hayotiy falsafa, tagmatn, mantiqiy mushohadakorlik, ramziylik juda quyug holatda berilgan va shu jihati bilan boshqa asarlardan ajralib turadi.

4. Adib asarlaridagi ayollar obrazi **yosh jihatidan** besh guruhga: qizaloqlar, qizlar, kelinchaklar, juvonlar, momolar (kampirlar) bo‘lingan. Adib asarlaridagi ayollar obrazi **ijtimoiy-ma’naviy mavqeyi** yuzasidan oddiy xalq vakili bo‘lgan mehnatkash ayollar, zodagon ayollar, ma’rifatli-ziyoli ayollar, ezilgan-jabrdiyda ayollar kabi guruhlarga, **xarakter va ruhiy holati tasviriga ko‘ra** sadoqatli va vafodor ayollar, jasur, ijtimoiy hayotda faol ayollar, fidokor va fojeali taqdirga ega ayollar kabi guruhlarga bo‘lindi.

5. Nazar Eshonqulning “Urush odamlari”, “Momoqo‘shiq” qissalari, “Shamolni tutib bo‘lmaydi”, “Bepoyon osmon”, “Qultoy” hikoyalardagi ayollar obrazi tasnifiy o‘rganildi va takrorlanmas qahramonlar yaratganligi dalillandi. Ayollar obrazi Nazar Eshonqul asarlarida murakkab ichki dunyo va ijtimoiy vaziyatlar orqali ochiladi. “Momoqo‘shiq”, “Urush odamlari”, “Shamolni tutib bo‘lmaydi” kabi asarlardagi ayollar obrazi – Muazzam, Anzirat, Bayna momo – o‘ziga xos iztirob, sabr, axloqiy tanlovlar bilan talqin etiladi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, bu obrazlar orqali yozuvchi ayol ruhiyatining murakkab qatlamlarini ko‘rsatishga intiladi.

6. Yozuvchining ayollar obrazini, ularning ichki dunyosini tasvirlash mahorati, qahramonlar ruhiy olamini qay yo‘sinda talqin etishi dalillandi. Qissa va hikoyalarda ayol qahramonlarning ruhiy holatlari, kechinmalari, ularning xarakteri, iztiroblari, jamiyat va oiladagi o‘rni va bu obrazlarga yuklangan badiiy zalvor mohiyati tahlil qilindi. Nazar Eshonqul ayol obrazlarini ideal yoki mutlaq salbiy qilib emas, balki insoniy murakkabligi bilan beradi. Biydi momo, Anzirat, Muazzam, Bayna momo, Oyto‘ldi Nazar Eshonqul ijodida yorqin aks etgan bosh qahramonlar hisoblanadi.

7. Yozuvchi obrazlar orqali ayolning ichki qarama-qarshiliklari, ijtimoiy bosimlar va shaxsiy qarorlar o'rtasidagi kurashni ochib beradi. Bu esa o'quvchida ayol obrazlariga nisbatan simpatiya va mulohaza uyg'otadi. Nazar Eshonqul hikoya va qissalarida badiiy tafakkurning tasviriy san'at va xalq og'zaki ijodi bilan sintezini yaratadi. Asarlarda badiiy detal (rang, tovush, hid, makon)ning kuchli ishlatilishi, tashbehlar va ramziy obrazlar orqali ichki holat tasviri kuchaytirilgan. Ayollarning tashqi qiyofasi: yurish-turishi, kiyinishi, hatti-harakat va imo-ishoralari, ongli va ongosti tuyg'ular dunyosi o'zining, roviyning va o'zga (personaj) nigohi, shuningdek ichki monolog (monolog-muhokama, monolog-mulohaza, monolog-xayol), diolog, peyzaj, portret, rang va boshqa detallar orqali ochilgan.

8. Nazar Eshonqul nasrida ayollar obrazi go'zallik, donishmandlik, aql farosat va muhabbat timsoli hamda insoniyat naslini davom ettiruvchi ulug' xilqat sifatida gavdalangan. "Bepoyon osmon" hikoyasida befarzandlik motivi "tug'mas kelin" versiyasi orqali ayolning eriga sadoqati va fidoyiligi ko'rsatib berilgan. Sharqda ayollar or-nomus timsoli ekanligi, ularning tabiatidagi itoatkorlik, hayotning sinovlariga, dard-iztiroblarga ko'nuvchanlik, keksa momolarida kayvonilik xususiyatlari borligi aks ettirilgan. Yozuvchi asarlarida ayollar obrazi, bir tomondan, milliy ruh va an'analar bilan bog'liq holda yoritilsa, boshqa tomondan, zamonaviy tafakkur, ichki ozodlikka intilish, shaxsiy drama va ijtimoiy beqarorlik kabi illatlar bag'rida shakllanganligi aniqlandi.

9. Tadqiqotlarda Nazar Eshonqul asarlari qiyosiy adabiyotshunoslik asosida keng tahlil qilingan. Adib asarlari Kafka, Tolstoy asarlari bilan qiyoslanib, universal muammolar – shaxsiyat inqirozi, axloqiy tanlovlar, jamiyatdagi ziddiyatlar bilan bog'langan. Bu yondashuv yozuvchining asarlarini xalqaro adabiy kontekstda baholash imkonini beradi. Adib ijodida G'arb adabiyotidan ta'sirlanish, uni ijodiy qayta o'zlashtirish holatlari kuzatiladi. Yozuvchi nasridagi bu holatlar milliy nasrimiz rivojida o'z hissasini qo'shib, uni boyitib kelmoqda.

10. Nazar Eshonqul ijodida ayol ruhiyati – milliylik, ma'naviyat va insoniylik timsoli sifatida talqin etiladi. Ayollar obrazi orqali muallif milliy qadriyatlar, ayollarning kuchi, sabr-toqati, hamda jamiyatdagi rolga yangicha, ba'zida fojeaviy nigoh bilan qaraydi. Shu orqali yozuvchi o'z estetik idealini – insoniylik va qadriyatlar ustuvorligini ilgari suradi. Nazar Eshonqul nasrida asardan asarga ko'chuvchi kayvoni momo obrazi mavjud. "Urush odamlari" qissasidagi Biydi momo, "Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasi qahramoni Bayna momo, "Momoqo'shiq" qissasidagi epizodik qahramon Shamsi Salohning yalangoyoq o'tin terib yuradigan momosi obrazi prototipi bir ekani aniqlangan.

11. Nazar Eshonqul hikoyalaridagi ayollar obrazi – o'zbek ayolining sabr, sadoqat, fidoyilik, isyonsiz iztirob va insoniy yuksaklik timsolidir. Adib bu obrazlar orqali o'zbek xalqining ona siymosiga bo'lgan chuqur hurmatini, jamiyatdagi ayolning o'rni va ahamiyatini teran bilan ifodalagan. Farzandi uchun har ishga tayyor, ular uchun umrini ham fido etgan onalar obraziga adib ijodida qayta qayta murojaat qilingan. "Qultoy", "Shamolni tutib bo'lmaydi", "Bepoyon osmon" hikoyalari qahramonlari hayotida ro'y bergan hodisalar o'zining hayotiyligi bilan kitobxonlar qalbini zabt etgan. Bu hikoyalarda ayollar farzandidan judo bo'lgan mushtipar

onaizor, sadoqatli yor, nogiron ammo sabr-bardoshli, yuksak irodali ayollar obrazi yorqin tasvirlangan.

12. Ayol obrazlariga berilgan ismlarda ham adib o'z uslubini saqlagan. Biydi, Bayna, Hojar, Anzirat, Muazzam, Sora, Hanifa, Kudurat, Oyto'ldi, Arzixol kabi ismlar boshqa yozuvchilar asarlarida uchramaydi. Ularning har biri bir olam ma'no tashiydi va intertekstuallik xususiyatiga ham ega. "Momoqo'shiq" qissasining nomlanishida intertekstuallikni, Anzirat, Kudurat, Bayna, Biydi kabi ismlarda hududga xoslikni, Muazzam, Oyto'ldi ismlarida ramziylikni, Arzixol, Havvo kabi ismlarda kinoyaviy modusni ko'rish mumkin.

13. Ayol obrazlari faqat ijtimoiy kurash emas, balki milliy ong, tarixiy xotira va ma'naviy qadriyatlar tashuvchisi sifatida yoritilgan. Bu holat, ayniqsa, o'z o'rnini topa olmagan, ammo vazifasini sidqidildan bajargan ayollar timsolida teranroq namoyon bo'ladi. Nazar Eshonqul asarlarida yuzaga chiqmagan ayollik tuyg'ularining fojeali oqibatlari aks etgan. Ayol ruhiyatidagi muvozanatning buzilishi jamiyatdagi axloq qoidalarini chetlab o'tishiga sabab bo'lishi ko'rsatilgan. Barcha ayollarga xos bo'lgan mehr-muhabbatga tashnalik, sevish va sevilish hamda ezozlanishda intilish istagi tabiiy yoritilgan.

14. Nazar Eshonqul o'z hikoyalarida badiiy til, ramz, portret, konflikt, ichki monolog, kontrast va kulminatsiya kabi vositalardan yuqori darajada foydalangan. Har bir obraz hikoya voqealarining dramatik dinamikasini belgilagan. Adib hikoya va qissalarda ayollar obrazi nutqiga qarg'ish va olqishlarni mahorat bilan, samimiy tarzda kiritgan. Bu esa asar tilining jonliligini ta'minlovchi omillardandir. Bu orqali adib asarlarining syujeti, kompozitsion qurilishi, xilma-xil qahramonlar va xarakterlar yaratishning o'ziga xos usuli, badiiy talqinda muallif konsepsiyasi ko'rsatildi.

**SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC  
DEGREES DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 UNDER  
TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE AND  
LITERATURE NAMED AFTER ALISHER NAVO'I**

---

**TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE AND  
LITERATURE NAMED AFTER ALISHER NAVO'I**

**ORIPOVA NURAFSHON OLIMJON KIZI**

**THE INTERPRETATION OF THE IMAGE OF WOMEN  
IN THE PROSE OF NAZAR ESHONKUL**

**10.00.02 – Uzbek Literature  
(20th-Century Uzbek Literature and the Contemporary Literary Process)**

**ABSTRACT OF THE DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD)  
DISSERTATION IN PHILOLOGY**

**Tashkent – 2025**

**The topic of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation is registered at the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan under the number B2023.2.PhD/Fil3351.**

The dissertation was completed at Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

The dissertation abstract is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (resume)) on the website of the Scientific Council ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)) and on the "ZiyoNet" Information and Educational Portal ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

**Scientific adviser:**

**Ulugov Abdulla Ozbekovich**

Candidate of Philological Sciences, Professor

**Official opponents:**

**Yakubov Islomjon Akhmedjonovich**

Doctor of Philology, Professor

**Burkhonova Feruza Abdurazzokovna**

Doctor of Philosophy (PhD) in Philology,

Associate Professor

**Leading organization:**

**Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore**

The dissertation defense will be held at the meeting of the Scientific Council DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 under Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature on \_\_\_\_\_, 2025 at \_\_\_\_\_ (Address: 100100, Tashkent city, Yakkasaroy district, Yusuf Khos Hojib street, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; fax: (99871) 281-42-44, [www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz); e-mail: [monitoring@navoiy-uni.uz](mailto:monitoring@navoiy-uni.uz)).

The dissertation can be viewed at the Information Resource Center of Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature (registered under number \_\_\_\_). Address: 103 Yusuf Khos Hojib Street, Yakkasaroy District, Tashkent, 100100. Tel.: (99871) 281-42-44; fax: (99871) 281-42-44, [www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz).

The dissertation abstract was distributed on \_\_\_\_\_, 2025.

(Registry report No \_\_\_\_ dated \_\_\_\_\_, 2025).

**Sh.S.Sirojiddinov**

Chairman of the Scientific Council for awarding Academic Degrees, Doctor of Philology, Academician

**K.U.Pardayev**

Scientific secretary of the scientific council for awarding academic degrees, Doctor of Philology, Professor

**N.A.Jabborov**

Chairman of the scientific seminar under the scientific council for awarding academic degrees, Doctor of Philology, Professor

## INTRODUCTION

(PhD Dissertation Abstract)

**Relevance and necessity of the dissertation topic.** In world literary studies, the need to explore and comprehend problems related to the analysis of literary works has brought serious issues to the forefront of the humanities. In particular, opportunities for conducting new scientific research of social significance and literary-aesthetic value are expanding. Research focused on the literary canons characteristic of the novella and short story genres of the epic form, as well as studies concerning the depiction of women, their suffering, and their spiritual world, continues systematically. The study of the female psyche plays an important role in understanding the laws governing a person's spiritual world, worldview, and mode of thinking. The literary process is always closely intertwined with social life and the literary environment. Transformations in people's consciousness, thinking, and worldview find their clearest reflection in literature and art. Literary studies, in turn, strive to view their object from a new perspective and to gain a deeper understanding of issues related to the female psyche.

Theoretical generalizations derived from research on the genre of the novella and its poetic nature in world literary studies have created the need to re-evaluate works that emerged during earlier stages of literary development. Indeed, analyzing and studying the evolution of the novella genre on the basis of renewed literary and aesthetic canons enriches the science of literary criticism with new theoretical insights and makes it possible to clarify the current principles of literary development and forecast its future trends. The works of Nazar Eshonkul clearly reveal features characteristic of advanced creative tendencies in world prose in his portrayal of the female psyche. In contemporary Uzbek prose – particularly in the stories and novellas of Nazar Eshonkul – one observes a tendency toward philosophical-psychological, symbolic, and allegorical imagery in depicting a woman's role in society and family, her emotions, and her complex inner world. This dissertation sets out to examine the place and significance of the image of women in Nazar Eshonkul's stories and novellas as a research problem. Indeed, the study of female characters in literary works provides insight into the social life and literary landscape of a particular historical period.

Uzbek literary studies, particularly during the Soviet era, often depicted women mainly as a labor force or as bearers of a "happy life". In contrast, contemporary stories and novellas focus on women's complex destinies, their contradictory characters, and their conditions amid the struggles of everyday life. Investigating these distinctive features of the two literary periods through the example of Nazar Eshonkul's prose has significant scholarly value. In part of Eshonkul's creative work, women are presented as central protagonists – their fates, psychology, and spirituality are portrayed in harmony with their place and status in social life, with special emphasis on their position at the crossroads of life. Studying this particular aspect of the writer's oeuvre helps

reveal the main principles of modern Uzbek prose, which in turn substantiates the topicality of the research. The growing importance of studying the place of modern Uzbek literary scholarship in the international arena, researching the national cultural heritage, and understanding values in the context of globalization requires a deeper penetration into the essence of fiction, clarifying its role in the development of world literature, and studying the legacy of authors who have profoundly influenced later literary periods. The ongoing reforms in the cultural and educational spheres of Uzbekistan are also setting new tasks for Uzbek literary studies. “Salvation lies in education, salvation lies in upbringing, salvation lies in knowledge. For all noble goals are achieved through knowledge and education”<sup>21</sup>. The study of female images in Nazar Eshonkul’s stories and novellas and the demonstration of their role in enriching people’s worldviews and elevating their spirituality define the distinctive features of this research.

This dissertation also contributes, to a certain extent, to the implementation of the objectives outlined in the following normative and legal documents of the Republic of Uzbekistan: Presidential Decree No. PD-4997 of May 13, 2016, “*On the establishment of the Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi*”; Decree No. PD-5850 of October 21, 2019, “*On the radical enhancement of the prestige and status of the Uzbek language as the state language*”; Resolution No. PR-2789 of February 17, 2017, “*On measures to further improve the organization, management, and financing of scientific research activities within the Academy of Sciences*”; Resolution No. PR-3160 of July 28, 2017, “*On increasing the effectiveness of spiritual and educational work and elevating the development of the field to a new level*”; and Resolution No. PR-3271 of September 13, 2017, “*On the program of comprehensive measures for developing the system of publication and distribution of books, promoting reading culture, and fostering book readership*”. The research also aligns with the goals set forth in the President’s address at the meeting with representatives of Uzbekistan’s creative intellectuals on August 3 and in his speech at the 72nd session of the UN General Assembly, as well as in other regulatory and legal acts pertaining to this field.

**Relevance of the research to the priority directions of the development of science and technology in the Republic.** The dissertation has been carried out in accordance with Priority Direction I of the development of science and technology in the Republic of Uzbekistan – “*The social, legal, economic, cultural, and spiritual-educational development of an information society and a democratic state, and the development of an innovative economy.*”

**Degree of study of the topic.** In Uzbek literature, analyses of certain works by Nazar Eshonkul have been reflected to some extent in the articles

---

<sup>21</sup> Mirziyoyev Sh. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so‘zi. – Toshkent, 2022. 20-dekabr.

of scholars such as I. Hakkulov, E. Azam, K. Kahramonov, N. Jabborov, Y. Solijonov, D. Kuronov, B. Karimov, A. Ulugov, I. Yokubov, Sh. Ahmedova, M. Kochkorova, Fakhriyor, D. Kholdorov, U. Rasulova, F. Burkhanova, and N. Chuliyeva. In this study, the main research problem is defined as identifying the reflection of the image of women in modern Uzbek prose based on the analysis of Nazar Eshonkul's stories and novellas. The issue of depicting female images in the prose of Nazar Eshonkul has not previously been studied within a specialized research framework. Unlike the above-mentioned works, the topic is examined for the first time in a monographic manner in this dissertation. To address the subject comprehensively, the research draws upon the following theoretical sources<sup>22</sup> and scholarly studies<sup>23</sup>.

**Connection of the dissertation topic with the research plans of the higher education institution where it was carried out.** The dissertation has been conducted within the framework of the scientific research plan of the Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi, under the topic *“Issues of the Contemporary Literary Process”*.

---

<sup>22</sup> Султон И. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005; Каримов Н., Мамажанов С., Назаров Б. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1999; Норматов У. Умидбахш тамойиллар. – Тошкент: Маънавият, 2000; Йулдош Қ. Ёниқ сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006; Қўчқорова М. Бадий сўз ва рухият манзаралари (эссе, қисса, ҳикоя: тадқиқ ва талқин). – Тошкент: Муҳаррир, 2011; Солижонов Ю. Нутқ ва услуб. – Тошкент: Чўлпон, 2022; Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018; Каримов Б. Адабиётшунослик методологияси. – Тошкент, 2012; Каримов Б. Рухият алифбоси. – Тошкент: Фафур Ғулом, 2018; Холдорев Д. Ижод моҳияти – услуб ҳосияти. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2017; Ёқубов И. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси. – Тошкент: Nurafshon business, 2022; Холдорев Д. Ҳозирги ўзбек қиссаларида бадий услуб муаммоси. – Тошкент: FIRDAVS-SHOH, 2021; Namrayev K. Adabiyotshunoslik asoslari (kompozitsiya, syujet, obraz). – Toshkent: Nurafshon business, 2022.

